

MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA MURAKKAB TARKIBLI QUYOSH NURIDAN HIMOYALOVCHI KREM TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Turayeva Sadoqat Solijon qizi

Samarqand shahar Zarmed Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15174603>

Annotatsiya. Quyosh nuridan himoyalovchi krem tarkibiga kiradigan dori moddalar va asoslar fizik-kimyoviy xossalari jihatidan turlicha bo'ladi. Davlat Farmakopeyasi ko'rsatmasiga ko'ra ftohimoyalovchi krem dori turi tarkibiga kiradigan dorivor moddalarni asosga qo'shishdan oldin ularni fizik – kimyoviy xossalarni bilish kerak bo'ladi.

Kalit so'zlar. Krem, choy bargi, texnologiya, kanakunjut moyi,

Kirish. Osilma turdagi krem dorilarni tarkibiga kirgan qattiq moddalar suvda va asosda erimaydi. Shuning uchun bu moddalarni hovonchada yaxshilab ezib, asos bilan aralashtiriladi. Agar preparatda qattiq dorivor moddalarning 4% gacha bo'lsa, u xolda dorivor moddalar yordamchi suyuqlik bilan maydalanadi. Yordamchi suyuqlik olinayotgan moddalarning yarimigacha teng bo'lishi kerak (Deryagin qoidasi). Yordamchi suyuqlik asosga yaqin bo'lishi kerak. Agarda asos ulevodorodli bo'lsa, yordamchi modda sifatida vazelin moyi, yog'li bo'lsa shaftoli, kungaboqar moyi, kanakunjut moyi, suvda eriydigan asos bo'lsa suv yoki glisirin ishlatiladi. Agar qattiq dorivor modda himoyalovchi kremga nisbatan 4 % dan yuqori bo'lsa, u holda dorivor modda yarim miqdordagi eritilgan asos bilan maydalanadi, so'ngra qolgan asos qo'shiladi. Aralash turdagi krem ko'p fazali surtma dorilarga kiradi. Uning tarkibiga bir vaqtda dori moddalar erigan holda, osilma va emulsiya xolatiga bo'lishish mumkin. Bu dori shaklini tayyorlash texnologiyasini ular tarkibiga kiruvchi oddalarning fizik- kimyoviy xususiyatlari xisobga olinadi. Ikkala tarkibdagi ftohimoyalovchi "Fito" kremni tayyorlashda ko'k choy damlamasidan foydalaniladi [1].

Tadqiqotning materiallari va usullari. Choy bargidan 1:10 nisbatda qaynatma olish uchun AU-3 (Rossiya) infundir apparatidan foydalanildi. Mahsulotlarning o'rtacha og'irligini aniqlash uchun VK-300.1 elektron tarozidan foydalanildi. Krem texnologiyasini olib borish uchun hovonchadan foydalanildi.

Natija. Avvalam bor ko'k choy damlamasini tayyorlash uchun, ko'k choy bargining suv shimish koeffisienti aniqlanadi. Suv shimish koeffisienti - 1,0 g standart maydalik darajasidagi (3-5 mm) xomashyo perfarirlangan infundir stakandagi siqib olingan keyingi ushlab qolingani suyuqlik miqdorini aniqlash uchun ko'k choyning 3-5 mm maydalangan bargi 10,0 g infundir apparatiga solinib, ustiga 100 ml xona haroratidagi tozalangan suv solinib 15 minut davomida qaynatiladi va issiq holda filtrlanadi. Chunki choy bargi tarkibidagi oshlovchi moddalar issiq suvda yaxshi eriydi. So'ng infundirka stakanidan siqib olinadi va hajmi o'lchanadi, bunda suv yo'qotish 14 ml ni tashkil etadi. Demak 100 ml 5 % ko'k choy damlamasini tayyorlash uchun 5,0 g quruq choy bargi va 107 ml tozalangan suv olamiz [2].

I-tarkib

Pasporti:

Choy bargi damlamasi	10, 0 ml
Fenil salisilat	2,0 g
Ruh oksidi	5,0 g
Vazelin	16,5 g

Lanolin 16,5 g
 Umumiy massasi: 50,0 g

Pasporti:

10,0 ml choy bargi damlamasi hovonchaga solinib, suvsiz lanolin bilan aralashtiriladi. So'ng vazelinni chinni kosada eritilib, boshqa isitilgan hovonchaga 5,0 g rux oksidi 5,0 gr vazelin bilan dispergiranadi. Boshqa hovonchada 2,0 g salol qolgan eritilgan vazelin bilan aralashtiriladi, toki salol yaxshilab erib ketguncha. Hosil bo'lgan aralashma rux oksidi solingan hovonchaga o'tkaziladi. So'ng ustiga lanolinli choy aralashmasi qo'shilib oz-ozdan vazelinning qolgan qismi qo'shiladi. Bunda aralash tipdagi krem hosil bo'ladi. Ushbu tarkibdagi choy va lanolin emulsiya tipida, rux va vazelin supsenziya tipida, salol bilan vazelin eritma tipidagi kremlar bo'lib, oxirida hammasi aralashtirilib, bitta aralash tipdagi krem hosil bo'ldi. Tayyor bo'lgan kremning sifati baholanadi. Qo'ng'ir rangli burama plastmassa qopqoqli idishga qadoqlanadi va "sirtga", "qorong'i joyda saqlansin" degan yorliq bilan jihozlanadi.

II-tarkib

Choy bargi damlamasi 10,0 ml
 Fenilsalisilat 2,0
 Rux oksidi 5,0
 Natriy tetraborat 1,0
 Mum 3,0
 Kanakunjut moyi 29,0
 Umumiy massasi 50,0

Ushbu tarkibini tayyorlashda chinni kosachaga 3,0 g asalari mumi solinib, suv hammomida 63- 65 S haroratda eritiladi va ustiga berilgan kanakunjut moyining yarimi qo'shiladi. So'ng issiq xolda suzib olinadi. Boshqa isitilgan chinni hovonchaga 2,0 gr fenilsalisilat solib, ustiga asalari mumi va kanakunjut moyining erigan aralashmasini solib, fenilsalisilat erib ketguncha aralashtiriladi. Isitilgan ikkinchi hovonchaga 5,0 gr rux oksidi solinib, ustiga unga nisbatan yarim miqdorda (Deryagin qonuni bo'yicha) kanakunjut moyi solinadi va yaxshilab dispergiranadi. Aralashmaga fenilsalisilat, asalari mumi, kanakunjut moyi aralashmasi qo'shib aralashtiriladi va oz-ozdan oldindan tayyorlangan choy damlanmasidan issiq hamda (45- 50 oS) 10, ml olib, 80-85 oS haroratda natriy tetrobarat eritilib, oz- ozdan aralashmaga solinib, oppoq ko'piksimon krem hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Krem ma'lum muddatda (1-2 soatga) hovoncha sovuguncha qoldiriladi. So'ng hovoncha chetida hosil bo'lgan tomchilar ham emulgirinish uchun yaxshilab aralashtiriladi. Kremning sifati baholanib, qo'ng'ir rangli burama plastmassa qopqoqli idishga qadoqlanadi va "Sirtga", "Qorong'i, salqin joyda saqlansin" degan yorliqlar bilan jihozlanadi [3].

Xulosa. Fotohimoyalovchi kremlar tarkibidagi dorivor va yordamchi moddalarning bir-biri bilan mos kelishi o'rganildi va optimal tarkib ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Maxmudjanova K.S., Nazarova Z.A., Tureeva G.M., Fayzullaeva N.S., Nazirova Ya.K. Kosmetik va parfyumer preparatlar texnologiyasi. Darslik. 2010y
2. Дмитрук С.И. Фармацевтическая и медицинская косметология. М:ООО «Мединформ агентство», Монография. 2007г

3. Башура А.Г., Половко Н.П. Технология косметических и парфюмерных средств.
НФАУ, Золотые страницы, Учебник. Харьков. 2002г

